

ABDULLA ORIPOV SHE'RLARIDA TAZOD SAN'ATI VA POETIK G'OYA

Berdishukurova Ma'mura Eshonqulovna
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
O'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi
3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent Hoshimjon Ahmedov

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning o'z she'rlarida tazod she'r san'atidan foydalanib, o'ziga xos poetik ma'no aks ettirgan she'rlari haqida so'z boradi. Bunda zidlash orqali nimalarga urg'u berilayotgani, shoirona tasvir va mazmun uyg'unligi kabi omillar borasida mulohazalar bayon qilinadi. Tahlil va talqinlar orqali muayyan ilmiy-nazariy xulosalar keltiriladi.

Kalit so'zlar. Abdulla Oripov, she'riy san'atlar, tazod, antiteza.

Аннотация. В статье рассматриваются стихи народного поэта Узбекистана Абдуллы Орипова, в которых используется искусство антитезиса, отражающее уникальный поэтический смысл. При этом анализируются такие факторы, как то, что подчеркивается посредством противопоставления, гармония поэтического образа и содержания. На основе анализа и интерпретации сделаны определенные научно-теоретические выводы.

Ключевые слова: Абдулла Орипов, поэтическое искусство, антитеза.

Abstract. This article examines the poems of the national poet of Uzbekistan, Abdulla Oripov, which employ the art of antithesis to reflect a unique poetic meaning. Factors such as the emphasis placed on the contrast and the harmony of poetic image and content are analyzed. Based on the analysis and interpretation, certain scientific and theoretical conclusions are drawn.

Keywords: Abdulla Oripov, poetic art, antithesis.

Kirish. O'zbek adabiyotining buyuk ijodkorlaridan biri, O'zbekiston Xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovdir. Abdulla Oripov XX asr o'zbek adabiyotiga o'zining sodda, samimiy, ta'sirchan va xalqona asarlari bilan katta hissa qo'shdi va o'chmas iz qoldirdi. U olovli she'riyati bilan xalqimiz ko'nglidan joy oldi. Shoir Abdulla Oripov o'z she'rlarida she'riy san'atlardan o'rinli foydalangan.

Tazod san'ati (arabcha-zidlash) zid ma'noli so'zlar yordamida yaratiladi. Klassik adabiyotda mutobiha, tiboq, talbiq, takafu, ittizod, muttazod kabi nomlar bilan ataladi, hozirda antiteza deb ham yuritiladi. Anvar Hojiahmedov o'zining "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya" asarida tazod san'ati haqida ham fikr yuritadi. "Tazod so'zi "zid

qo'yish", "qarshilantirish" ma'nolarini ifodalaydi. Shu so'z bilan ataluvchi she'riy san'at esa baytda ma'no jihatdan o'zaro zid, qarama qarshi bo'lgan so'zlarni qo'llab, ta'sirchan badiiy timsollar, lavhalar, yaratishni nazarda tutadi" [1, 39]. Abdulla Oripov she'riyatida bu san'atning go'zal na'munalarini ko'rishimiz mumkin.

Tahlil va mulohazalar. Abdulla Oripov –noyob iste'dod egasi bo'lib, falsafiylik, milliy ruh, diniy-axloqiy mezonlar, insoniylik shoir she'riyatining asoslarini tashkil etadi. Abdulla Oripovning "Savob" she'rida inson savob ish qilish uchun boy-badavlat bo'lishi shart emasligi, inson o'z holatidan kelib chiqib ham savob ishlarga qo'l urishi mumkinligi ifodalangan. Bu yerda "katta" va "kichik" so'zlari zid qo'yilgan, islom dunyosidagi savob amallarining ulug'ligiga urg'u beradi:

Dasti qisqalarni kamsitma zinhor,
Savobning katta-yu kichigi bo'lmas.
Kimningdir davlati behad-u bisyor,
Va lekin baxldir tolei kulmas. [2. 34].

Har bir inson o'z hayoti davomida zaif va kuchli, sog'lom va bemor, boy va kambag'al, yoshlik va keksalik singari holatlarni boshdan o'tkazadi. Ammo inson bularning birortasida doimiy emas. Bu Alloh taoloning oliy hikmati bo'lib, hayotda har bir holat o'z ziddi bilan aks etadi. Musulmon kishi ana shu ilohiy muvozanatni saqlagan holda umr kechirishi maqsadga muvofiqdir. Shunday ekan, Islom dini insonga ne'mat berilsa, shukr qilishga, zaiflik yetganda sabrli bo'lishga undaydi. Musulmon kishi bu voqelikni yaxshi anglay bilishi kerak. Ya'ni kuchli zaifga kibr qilmasligi, sog'lom bemorning ko'nglini og'ritmasligi, boy kambag'alga mag'rurlanmasligi, yoshlar keksalarni hurmat qilishi lozim. Hamma vaqt kamtarlik savob olish va go'zal insoniy fazilatlarni egallashga sabab bo'ladi. Hatto kamtar inson har qanday holatda ham sinovga duchor bo'lgan kishining o'rniga o'zini qo'yib ko'ra oladi. Qur'oni Karim oyatlarida Alloh taolo mo'min va solih bandalariga savobi evaziga ajrlar berishi takror-takror ta'kidlanadi. Savob bandaning bu dunyoda qilgan amali uchun mukofotidir. Alloh taolo aytadi: "Siz o'zingizni erta-yu kech Parvardigorlarining "yuzi"ni istab, u zotga duo-iltijo qiladigan zotlar bilan birga tuting! Ko'zlaringiz hayoti dunyo ziynatlarini ko'zlab, ulardan o'tib o'zga ahli dunyolarga boqmasin!"(Kahf surasi, 28-oyat). [3. 125]. Oyatda o'zi kambag'al, zaif bo'lsa-da, yaxshilik yo'lida yuradigan insonlar bilan birga bo'lishni, mol-dunyo ziynatlariga berilib, Allohni esdan chiqargan kimsalardan yiroqda bo'lish nazarda tutilmoqda.

Abdulla Oripovning "Duo" she'rida tazod san'atining yana bir marta chiroyli qo'llanganining guvohi bo'lamiz. "Duo" she'rida "baland" va "past" so'zlari qarshilantirilgan. "Baland" so'zi orqali inson martabasi, qadri va insonga berilgan

ne'matlar ulug'langan. "Past" so'zi orqali insonning qadsizlanishi, gadolik, tilanchilik, qaramlik va muhtojlik ifodalangan:

Qo'ling baland bo'lsin desalar illo,
Qo'ling past tushmasin sira ham, derdi.
Qo'ling baland bo'lsa, bilki, bu ne'mat,
Qo'ling past tushmog'i tilanchilikdir. (o'sha manba, 35)

Muhammad sollallohu alayhi vasallam duoning ahamiyatini ko'p bor ta'kidlaganlar, u mo'minning ibodati va Allohga eng yaqin bo'lishi, Uning fazlini so'rashga undaganlar, duoni qabul qilish va'dasini berganlar. Payg'ambarimiz hadislarida mo'minning la'natlovchi bo'lmasligini, duodan qochish esa jahannamga kirishga sabab bo'lishini aytganlar, bu duo bilan murojaat qilish qanchalik muhimligini ko'rsatadi. Duo-arab tilida "chaqirish", "so'rash" ma'nolarini anglatadi. Duo haqida Muhammad (s.a.v.) ning muhim gaplari: "Duo — ibodatdir": Payg'ambarimiz (s.a.v.) duoni ibodatning o'zi deb ta'kidlaganlar, bu uni qanchalik muhimligini ko'rsatadi. [Allohga murojaat qilish](#): U zot, "Menga duo qilinglar, ijobat qilaman", degan Allohning kalomini keltirib, bandalarni undan so'rashga chorlaganlar. [Iymon va duo](#): Allohga duo qilib, iymon keltirganlar to'g'ri yo'lni topishini aytganlar (3.Baqara, 186).

La'natdan qaytarish: Mo'min ko'p la'natlovchi bo'lmasligi, la'nat ko'pincha aytuvchiga qaytishi haqida aytib, duoning ijobiy tomoniga urg'u berganlar.

Muhammad (s.a.v.) duoni mo'minning asosiy quroli, Alloh bilan aloqasi va ibodati deb ko'rganlar.[4. O'zbekiston musulmonlar idorasi <https://muslim.uz>]

Abdulla Oripovning "Bahs" she'rida tazodlar "Do'zax" va "Jannat", "fosiq" va "yaxshi", "azob" va "rohat", so'zlari orqali hosil bo'lgan.

Bir kun bahsga tushdi Do'zax va Jannat,
Tortisha boshladi har ikki tomon.
Biri azobini uqtirsa faqat,
Biri rohatini maqtardi chunon.
Do'zax maqtanardi:-Jamiki yuzsiz,
Fosiq bandalarni yig'ib olganman.
Jannat kerilardi:-Men esa, so'zsiz,
Yaxshilarni to'plab, dovrug' solgayman. (24-bet)

Jannat va do'zax inson yetib boradigan oxirgi manzillardir. Inson ulardan biriga yetgandan keyin abadiy qoladi. Ahli sunna va jamoa mazhabi e'tiqodicha, bu ikki narsa moddiy bo'lib, ulardagi narsalar ham ruhga va ham jismga oiddir. Ulardagi ne'matlar va azoblar ham jismga, ham ruhga beriladi. Jannat va do'zax abadiy turadigan narsalardir. Ularga tushgan kishilarning qolishi ham abadiy bo'ladi. Faqat ba'zi osiy mo'minlar o'z qilmishlariga yarasha jazoni o'taganlaridan keyin do'zaxdan jannatga

chiqadilar. Jannat haqida Qur'ondan dalillar: "Jannat taqvodorlar uchun tayyorlangandir" (Oli Imron surasi, 133-oyat). Yoki: "Jannat Alloh va uning payg'ambarlariga iymon keltirganlar uchun tayyorlangandir" (Hadid surasi, 21-oyat). "Jannat taqvodorlarga uzoq bo'lgan joyga yaqinlashtirildi" (Qof surasi, 31-oyat).

Alloh taolo "Naba" surasida quyidagilarni aytgan: "Albatta, jahannam poylab turuvchidir. Tug'yonga ketganlarning qaytar joyidir" (21-22oyatlar). Biz, "poylab turuvchidir", deb tarjima qilgan ibora dushmani poylab turishga ishlatiladigan iboradir. Do'zax haqida sunnatdan dalil: Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: "Mening jonim qo'lida bo'lgan zot bilan qasamki, agar, men ko'rgan narsani ko'rsangiz albatta, oz kular va ko'p yig'lar edingiz", -dedilar. Odamlar "Ey, Allohning Rasuli, nimani ko'rdingiz?" -dedilar. U zot sollallohu alayhi vasallam: "Jannatni va do'zaxni ko'rdim", -dedilar.

Abdulla Oripov Do'zax va Jannatni qo'llagan holda insonni o'z qilgan ishlari-yu, bosib o'tgan yo'llariga nazar solishga majbur qiladi. Shoirning "Hazrati odam" she'rida "o'ng" va "chap", "yayrar" va "o'rtanar", "Do'zax" va "Jannat" so'zlari orqali tazodlar hosil qilingan:

O'ng yoqqa boqqanda ruhlari yayrar,
Chap yonga boqqanda o'rtanar faqat.
Bir tomon Jannatning fusunkor bog'i,
Bir tomon Do'zaxdir, yo'qdir adog'i. (16-bet)

Bu yerda "Jannat" chiroyli bog'ga qiyos qilingan bo'lsa, "Do'zax" adog'i yo'q jahannam deb ta'riflangan. Abdulla Oripovning "Bilol habash" she'rida tazod "sog'" va "xasta", "oq" va "qora" so'zlari orqali hosil qilingan:

Sidq ila vafoga bo'ldi u timsol,
Qaytmadi rost yo'ldan, sog' yo xastadir.
Javob shunday bo'ldi:- So'ylangiz bilib,
Uning oq dilida iymon ohangi.
Jannat hurlariga qora xol qilib,
Bo'lib berilgaydir Bilolning rangi. (22-bet)

Bilol Habashiy Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vassallamning eng mashhur sahobalaridan, birinchi muazzinlaridan hisoblanadi. Efiopiyada tavallud topgan. Otasi Raboh, onasi Hamima. U boy makkalik zodagon Umayya ibn Xalafning quli bo'lgan. Bilol ibn Raboh birinchi musulmonlardan hisoblanadi.

Bilol-Alloh elchisining muazzini juda baland bo'yli, qora tanli, ozg'in, jingalak sochli bo'lganlar. U Alloh elchisiga yaqin kishilardan, uning vaziri, qullar orasida birinchi bo'lib Islomni qabul qilgan va doim jannatga erishish hissi bilanyashagan. Abu Abdulloh Bilol ibn Raboh roziyallohu anhu 30 yoshlarida Islomni qabul qilgan. U

shuningdek o‘zini Islomga tegishli ekanini oshkora aytgan yetti kishining biri bo‘lib, buning uchun qattiq azoblangan besh kishining biri bo‘lgan. Uni maqtay boshlaganlarida u:”Men kecha qul bo‘lgan bir habashman”, der edi.

Iroda kuchi, toza qalb va samimiylilik uni shunday darajalarga ko‘tardiki, ulkan boylik, mashhur nasab ham bunga yordam bera olmaydi va bu yo‘lda uning qora tanli ekani, qul bo‘lgani hech ham xalaqit bermadi.

Alloh Elchisi aytadi: ”Alloh yetti yaqin do‘st bermagan biror payg‘ambar bo‘lmagan. Menga esa 14 ta shunday vazirlarni berdi: Hamza, Ja‘far, Ali, Hasan, Husan, Abu Bakr, Umar, Miqdod, Huzayfa, Salmon, Bilol, Ibn Mas‘ud va Abu Zar”. Abdulloh ibn Mas‘ud roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Islomni oshkora qabul qilganlar yetti kishi edi: Alloh Elchisi, Abu Bakr, Ammor va uning onasi Sumayya, Suhayb, Bilol va Miqdod. Alloh Elchisi sollallohi alayhi vassallamni uning amakisining yordami bilan mushriklar zulmidan saqlab qoladi. Abu Bakrni uning qarindoshlari himoyasiga oldi. Qolganlarni mushriklar turli qiynoqlarga solishdi: tushki jaziramada Umayya ibn Xalaf Bilol roziyallohu anhuri ko‘chaga chiqarib, tuproqqa yotqizib, ustiga katta og‘ir toshni bostirgancha: “Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) dan yuz o‘girib, butlarga sig‘inishni boshlamasang, o‘lguningcha shunday yotaverasan”, deyishdan charchamas edi. Bilol roziyallohi anhu esa: “Ahad...Ahad..”ni tilidan qo‘ymas edi. Abu Bakr uni ozod qiladi.

Bilol Rasululloh bilan barcha g‘azotlarda qatnashib, namozlarda azon aytib, uni zulmatdan nurga olib chiqqan, qullikdan ozodlik sari elitgan ushbu buyuk dinga har tomondan yordam berib, himoya qilib yashadi.. Yashar ekan, Islom sha‘ni ulug‘lanib, musulmonlar soni o‘sib bordi.

Bu satrlarda ollohga yetish maqsadida sog‘ yoki xastaligidan qat‘iy nazar intilishi, qora tanli Bilol oq ko‘ngli bilan Jannat hurlaridan ham yuqori darajaga ko‘tarilgan. Insonning ko‘rinishi emas, balki uning ko‘ngli toza va sofligi yoritilgan.[5. Bilol Habashiy islom.uz]

Abdulla Oripovning “No‘malum odam” she‘rida “O‘lim” va “Tug‘ilish” so‘zlari tazodni ifodalagan:

O‘lim bu –insonga borib tekkan o‘q,

Tug‘ilish- shiddatla tortilgan kamon. [6. 201].

Shoir “Tug‘ilish” deb umrni juda qisqaligi, o‘q umrning tezda o‘tishini ifodalagan bo‘lsa, “O‘lim” deb umrning yakuni, poyoni borligi, hech kim dunyoga ustun bo‘la olmasligini ifodalagan.

Abdulla Oripovning “Xotirot” she‘rida tazodni “tug‘iladi” va “o‘lar” so‘zlari hosil qilgan.

Dunyo bu-eng oddiy hukmiga ko‘ra,

Kimdir tug‘iladi va kimdir o‘lar. (shu kitob, 171-bet)

Qur'on hayot va o'limni Allohning cheksiz qudratiga dalil qilib keltiradi, bunda insonning yaratilishi (tug'ilishi), yashashi va o'limi Alloh tomonidan belgilanganligini ta'kidlaydi, odamlarni o'lim haqiqatiga tayyor turishga, solih amallar qilishga undaydi; «Alloh hayotni va o'limni yaratdi» (Mulk surasi, 2-oyat) kabi oyatlar bilan bu mavzuni yoritadi. Qur'ondan dalillar (oyatlar):

1. [Mulk surasi, 2-oyat](#): «(U) sizlarning qaysi biringiz yaxshiroq (amal) qiluvchi bo‘lishingizni sinash uchun hayotni ham, o‘limni ham yaratgan zotdir. U O‘ta izzatlidir, O‘ta mag‘firatlidir». Bu oyatda hayot va o'limning yaratilishi Allohning sinovi ekanligi aytiladi.

2. [An'om surasi, 95-oyat](#): «Albatta, Alloh urug‘ni yorib, (undagi tirikni) chiqaruvchi, U uyqudan uyg‘otuvchi zotdir. (Barcha) tirik jonlarni (o‘limdan keyin) tiriltiruvchi zot ham, (tiriklikdan) o‘limga olib boruvchi zot ham U zotdir» (tafsirda shunday).

3. [Nahl surasi, 70-oyat](#): «Alloh sizlarni yaratdi, so‘ngra (xohlasa) joningizni oladi. Sizlardan ba‘zilari umrining eng past yoshiga (keksayganiga) qaytariladiki, hatto bilgan narsasini ham unutib qo‘yadi. Albatta, Alloh biluvchidir, qodirdir».

Qur'oni karimda tug'ilish va o'lim - hayotning ajralmas qismi va Allohning qudrat belgisi sifatida tasvirlanadi. Bu haqiqatlar odamni dunyoviy hayotga berilib ketmaslikka, o'limga solih amallar bilan tayyorgarlik ko'rishga va oxiratga yuzlanishga undaydi.

Abdulla Oripovning “ Haqiqat yo‘llari” she’rida “quradi” va “buzar”, “sulton” va “qulbobo”, “yaxshi” va “yomon”, “sevinch” va “g‘am” so‘zlari tazod san‘atini aks ettirgan.

Va shu ulkan dunyoning kemptigidan bo‘y layman,
Unda birov quradi, birov buzar bemaalol.
Ba‘zan yomon ot qolur, yaxshi odamdan hatto,
Qay bir yovuz kimsani yaxshi derlar erta kun.
Shu mo‘jaz hayotimda ko‘rdim qancha sevinch, g‘am,
Goho tik boqolmadim razolatning ko‘ziga. (165-bet)

Bu she’rda tazodlardan foydalanish orqali hayot yo‘llarida haqiqat yo‘qligini chiroyli tasvirlagan.

Abdulla Oripovning “Shoir” she’rida “Sharq” va “G‘arb” so‘zlarini qo‘llagan holda tazodni hosil qilgan. Shoirning yozgan misralari shoirning qalbidan o‘tayotgan kechmish deb ta’rif beriladi she’rda.

Agar kerak bo‘lsa Sharq va G‘arbni,
Yolg‘iz bir she’riga eta olar jo. (145-bet)

Xulosa. Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ladiki, she'riyatning eng oddiy vositalaridan biri – tazod orqali shoir o'zining badiiy niyatini mohirona ifodalay oladi. Jumladan, Abdulla Orifning yuqoridagi tahlil qilingan misralariga asoslanib, quyidagi xulosalarni bayon qilish mumkin:

1. Abdulla Oripov tazod orqali mo'min-musulmonlarning muqaddas a'mollarini ta'sirchan ifodalay olgan.
2. Shoir har safar tazod orqali asosiy ma'noga urg'u beradi, uning ahamiyatini ta'kidlaydi.
3. Tazod – she'rning, poetik g'oyaning to'laqonli aks etishiga xizmat qiladi.
4. Bu she'riy san'atning mohirona qo'llangani ulug' adibimiz dahosining yana bir betakror iqtidoridan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизми? – Т.: Шарқ, 1999. – 96 б.
 2. Абдулла Орипов. Ҳикмат садолари. Т.: “Фан”. 1993. – 106 б.
 3. Қуръони Карим. Алоуддин Мансур таржимаси ва изоҳи. Т.: “Чўлпон”. 1992. – 496 б.
 4. <https://muslim.uz>
 5. <https://muslim.uz> Билол Ҳабаш ҳақида.
 6. [Абдулла Орипов. Танланган асарлар. 1 жилд. Т.; Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2000. – 432 б.](#)
- “Sharq” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati. Toshkent-1998].
3. O'zbekiston musulmonlar idorasi <https://muslim.uz>.